



UDK:102.3

Farangis AZIMOVA,
Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail:farangis@mail.ru

PhD, dotsent B.Nasirov taqrizi asosida

ANALYSIS OF THE ROLE OF DASHT-I-QIPCHAQ NOMADS IN DEMOGRAPHIC CHANGES OF THE ZARAFSHAN OASIS BASED ON HISTORICAL SOURCES

Annotation

This article describes the process of arrival of Turkic tribes of Dashti Kipchak to our country and their impact on demographic changes. Also, the characteristics of the lifestyle of Uzbek tribes are analyzed in historical sources and in historiography.

Key words: Joji nation, nomads, customs, ethnic processes, Tarikh-iJahan-namai, local population, historical sources, Jungar Khanate, Chin Empire, trade relations, Uzbek nation.

АНАЛИЗ РОЛИ КОЧЕВНИКОВ ДЕШТИ-КИПЧАКА В ДЕМОГРАФИЧЕСКИХ ИЗМЕНЕНИЯХ ЗАРАФШАНСКОГО ОАЗИСА НА ОСНОВЕ ИСТОРИЧЕСКИХ ИСТОЧНИКОВ

Аннотация

Данная статья посвящена изучению процессов проникновения тюркских племён Дешти-Кипчака на территорию нашей страны и их влиянию на демографические изменения. Также анализируются особенности образа жизни узбекских племён с точки зрения исторических источников и историографии.

Ключевые слова: Улус Джучи, кочевники, обычаи, этнические процессы, «Тарихи Жахоннома», местное население, исторические источники, Джунгарское ханство, империя Цин, торговые связи, Узбекский улус.

ZARAFSHON VOHASIDA DEMOGRAFIK O'ZGARISHLARDA DASHTI QIPCHOQ KO'CHMANCHILAR ROLINING TARIXIY MANBALAR ASOSIDAGI TAHLILI

Annotatsiya

Ushbu maqola orqali dashti qipchoqlik turkey urug'larining o'lkamizga kirib kelish jarayonlari hamda ularning demografik o'zgarishlardagi ta'siri ko'rib chiqiladi. Shuningdek, o'zbek qabilalari turmush tarziga xos bo'lgan xususiyatlar tarixiy manbalar hamda tarixshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Jo'ji ulusi, ko'chmanchilar, urf-odat, etnik jarayonlar, Tarixi Jahonnomayi, mahalliy aholi, tarixiy manbalar, Jung'or xonligi, Chin imperiyasi, savdo aloqalari, O'zbek ulusi.

Kirish. O'zbek xalqining shakllanishida ko'plab xalqlar singari Dashti Qipchoq ko'chmanchilarining sezilarli ta'siri bordir. XV asr oxiri – XVI asr boshlarida Movarounnahr va Xorazm hududlariga Dashti Qipchoqdan kirib kelgan ko'chmanchi o'zbeklar to'g'risida ko'plab tarixiy manbalar mavjud. Bu davrda Dasht hududidan Movarounnahrda kirib kelgan aholi miqdori va etnik tarkibi xususida turli fikrlar mavjud. Jumladan, R.I. Sulstonov o'rta asr muarrixlari Muhammad Solih, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirza Muhammad Haydar vaFazlulloh ibn Ro'zbehxon bergan ma'lumotlarga asoslanib, XV asr oxiri-XVI asr boshlarida Dashti Qipchoq hududidan Movarounnahrda 1 mln 240 - 1 mln 360 minga yaqin aholi ko'chgan, deya ta'kidlaydi" [1]. Etnograf tarixchi K.Shoniyozov esa uning soni aniq emas, lekin mahalliy aholidan birmuncha kam bolgan deb yozadi [2]. Arxeolog tarixchi A.Asqarov esa K. Shoniyozovning fikrini tasdiqlagan holda, garchi ular katta miqdorda ko'chib kelgan bo'lsalar-da, ammo mahalliy aholining etnik asosini o'zgartirib yubora olmaganligini qayd etgan[3]. Boshqa bir o'rinda olim Movarounnahr va Xorazmga kelgan Dashti Qipchoq o'zbeklari sonini matematik hisobda hisoblab, ular kamida 500-600 ming bo'lgan, degan fikrni ham ilgari surgan. Bu kabi ma'lumotlarga tayanib ayni shu davrda Movarounnahr demografiyasining bir qadar ko'tarilganligini kuzatish mumkin.

Yozma manbalardagi ma'lumotlarga asoslanib shuni aytish mumkinki, Shayboniyxon boshchiligidagi ko'chmanchi aholi Movarounnahr hududiga o'rnamashib olgach, o'z

hududlarini kengaytirish maqsadida qo'shni davlatlarga harbiy yurushlarni amalga oshirishgan. Bularning natijasida esa Buxoro xonligiga boshqa hududlardan ko'plab aholining ko'chib kelish jarayonlari sodir bo'lgan. Masalan, "Shajarayi turk" asari muallifi Abulg'ozi Bahodirxon XVI asr boshlarida Shayboniyxonning Xorazmga qilgan yurishi vaqtida Qiyot va Buldimsoz aholisining Movarounnahrda ko'chirib keltirilganligi haqida yozgan[4].Xiva xonligi aholisining majburiy ko'chirilishi shayboniy Ubaydullaxon hamda Abdullaxon II lar davrida ham takrorlangan. Ularning Xorazmga qilgan yurishlari oqibatida Xorazmdan asosan xivalik va urganchlik aholining ma'lum qismi Buxoroga ko'chirilgan [5].

Shu bilan birga, qo'shni davlatlarda yuz bergan turli siyosiy voqealiklar ham ularning aholisini Buxoro hududiga ko'chib o'tishiga sabab bo'lganligini Muhammad Yusuf Munshiyning "Muqimxon qissasi" asaridagi ma'lumot tasdiqlaydi. Asar muallifining yozishicha, Xiva xonligida kechgan siyosiy beqarorliklar, xususan, Asfandiyorxon (1623-1642) davrida turkmanlar tazyiqining kuchayishi oqibatida, xonlikning ko'plab aholisi Samarqand, Buxoro hududlariga kelib o'rnamashgan[6].

Tarixiy manbalardagi ma'lumotlarga ko'ra, yuqoridagi sabablar tufayli xonlik hududiga chetdan aholining kirib kelishi keying davrlarda ham davom etgan. Manbalardagi bu ma'lumotlar hozirgacha amalga oshirilgan tadqiqotlarda ham o'z ifodasini topgan. Masalan, XVIII asrning ikkinchi yarmida

Xiva xonligida yuz bergan ocharchilik va o'lat kasalligining tarqalishi oqibatida ko'plab aholining Buxoroga ko'chib kelganligi[7] yoki XVII-XIX asrlarda Sharqiy Turkistonda kechgan o'zaro taxt uchun kurashlar, Jung'or xonligi va Chinimperiyaning bu hududda qilgan bosqinchilik yurishlari ushbu mamlakat aholisining Buxoro xonligi hududiga keng ko'lamda kirib kelganligi oqibatida sodir bo'lgan jarayonlar bunga misol bo'la oladi.

XIII-XIV asrlarda Movarounnahr va unga tutash viloyatlarga kelib o'rnatilgan urug'lar o'z miqdoriga ko'ra turlicha bo'lgan. Ma'lumki turkey va turklashgan mo'g'ul guruhlarining ko'pchiligi Movarounnahrqa kelmasdan oldin Dashti Qipchoqda, Yettisuvda va Sharqiy Turkistonda yashaganlar. Bu hududlarda ular parchalanib kichik-kichik guruhlariga bo'linib ketgan edilar. Ularning katta qismi yashab turgan hududlarida qolib, turli etno-siyosiy birliklar tarkibiga kirib, o'z joylarida yashashda davom etgan edilar. Ulardan ajralib chiqqan guruhlar Amudaryo va Sirdaryo oralig'idagi viloyatlarga, Xorazmga va Toshkent vohasiga kelib o'rnatilgan edilar. Misol uchun qipchoqlarni olaylik. Yirik qipchoq etnik birligi mo'g'ullar davrida guruhlariga bo'linib ketgan edi. XIV-XV asrlarda qipchoq etnik guruhlarini, Shimoliy Kavkazda, Qrimda, Volga bo'ylarida, Ural tog' oldi mintaqalarida, Dashti Qipchoqning sharqiy qismida, Yettisuvda yashab edilar. Sirdaryo sohillarida yashovchi qipchoqlarning bir guruhi Amir Temur tomonidan Movarounnahrqa ko'chirilgan. Ular hozirgi O'zbekiston va Tojikistonning janubiy tumanlariga va Afg'onistonning shimoliy hududlariga o'rnatilgan edilar. Movarounnahr va unga tutash hududlarda yashovchi har yerlardan ko'chib kelgan etnik guruhlar aholini sonining ko'payishida ma'lum rol o'ynagan. Lekin ular mahalliy aholining etnik tarkibini tubdan o'zgartira olmagan.

Tarixiy manbalarda Buxoro hamda Xiva xonliklarining hukmdorlari o'rnatilgan turli ittifoqchilik aloqalari ham ana shunday jarayonlarga sabab bo'lganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar mavjud. Xususan, Badriddin Kashmiriyning asarida ana shunday ma'lumotni uchratish mumkin. Uning yozishicha, Abdullaxon II bilan harbiy ittifoqchilik tuzgan Qozoq xoni Shig'oyxon o'g'li Tavakkal, o'z xizmatida bo'lgan o'n bir qozoq sultoni hamda qirg'iz amirlari bilan birga Buxoro hukmdori huzuriga tashrif buyurib, uning harbiy harakatlarida ishtirok etgan. Kashmiriyning guvohlik berishicha, Abdullaxon II unga Xo'jand viloyatini xiroj sifatida bergan va 1583-yilda Qozoq xoni Movarounnahr hududida vafot etgan [8].

Hofiz Tanish Buxoriyning "Tarixi Muqimxoniy" asarida ham qozoq qabilalarining Buxoro hududiga kelib o'rnatilish jarayonlari aks etuvchi ma'lumotlar uchraydi. Ushbu

asarda aytib o'tiladiki, Abdullaxon II shayboniy Bobo Sultonni yengishda ko'rsatgan yordami uchun Qozoq sultoni Tavakkalga Samarqandning eng yaxshi joylaridan bo'lgan Ofarinkentni suyg'ol sifatida bergan. Chunki Abulfayzxon davrida jung'or qalmoqlaridan aziyat chekkan qozoqlar Buxoro xonligida talonchilik faoliyatini amalga oshiradi. Boshqa yozma manbalarda ham ayni shu jarayonlarga to'xtalib o'tilgan, ya'ni yeti yil davomida na Buxoro na Samarqandda ularni bostiradigan kuch topilmagan.

Shu o'rinda aytib o'tish kerakki, XVII asr birinchi yarmida qalmoqlarning o'lkamizga bostirib kirishi ham Buxoro xonligi hududiga turli urug'-qabilalarning kirib kelishiga sabab bo'lgan. Bu jarayonni aks ettiruvchi ma'lumotlar Ashtarxoniyalar davrida yaratilgan asarlarda aks etgan. Masalan, Muhammad Amin Buxoriyning asarida "qalmoqlarning hujumidan sarosimaga tushgan qozoq va qoraqalpoq qabilalari va uluslari qo'rquvdan o'z yurtini tashlab Toshkentga o'rnatilish oldi" deb ta'kidlanadi[9].

Xonlik aholisining etnik tarkibining boyishiga va soni ham ortib borishiga yana bi riqtisodiy omil, ya'ni aholining kundalik ehtiyoj mollariga bo'lgan zarurati ham sabab bo'lganligini tasdiqlovchi ma'lumotlar bor. Ko'chmanchi turmush tarzida yashagan qozoqlar ham yaylovlarni kengaytirish maqsadida yoki oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoji tufayli Buxoro xonligining hosildor hududlarini egallashga intilgan. Aynan shu zaruratlar oqibatida dasht aholisi Turkiston, Sabron, Yassi, Sayram va Toshkent hududlariga kelib o'rnatilgan.

Ma'lumki, XIX asrga kelib qipchoqlarning Farg'ona vodiysida ham soni oshib boradi. Bu o'z navbatida demografik o'sish bilan birga siyosiy hayotda ham o'zgarishlarga olib keladi. Qipchoqlar qirg'inigacha bo'lgan holatda hatto Xudoyorxon ham siyosiy jihatdan ular ta'sirida bo'ladi. Aynan XIX asrning birinchi yarmida qipchoqlarning Qo'qon xonligi siyosiy hayotida tutgan o'rni manbalarda ham keltirib o'tiladi. Masalan, "Tarixi Jahonnomayi" da quyidagicha ma'lumot keltiriladi: "Qipchoq va qirg'iz, qozoq va qoraqalpoq barcha sanchiqli va boshqa ulus va qabilalar hamma mizbixonazod va birodarlarmiz, bizning sohibimiz Shaxruxxon agar mamlakatni qo'lga kirsam, har bir qabila va badaviyarisini yuksak mansablar va yaxshi maoshlar bilan bahramand qilaman deya va'da bergan. Sizlardan umid shukim, o'z qabila va toifangizning chaqqon yoshlarini yig'ib, qo'lingizdan kelgan hiyla va tadbir kelsa ishga soling-da, Toshkandni qo'lga kiriting va ul tomonning qishloqlarini g'orat va toroj qilib, o'z guruh va firqalaringizning yaroq-asbob va oziq-ovqat zahirasini shundan ta'min eting" [10].

ADABIYOTLAR

1. Султонов Т. И Кочевые племена Приаралья в XV-XVII вв.- Москва: Наука, 1982. 11, 21-стр.
2. Shoniyo'zov K. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni. 390-bet
3. Asqarov A. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. 68-bet
4. Abulg'oziy Bahodirxon. Shajarayi turk. Toshkent-1992. 134-bet
5. Allayeva N. O'rta asrlarda Xiva xonligi aholisi tarkibi va unga etnodemografik jarayonlarning ta'siri. Toshkent-2005. 17-bet
6. Мухаммед Юсуф Мунши. Муким-ханская история, 84-стр.
7. История Узбекистана. Том 3.-Ташкент. Фан 1993.263-стр
8. Badriddin Kashmiriy. Ravzatar-rizvon va hadiqat al-gilmon. 233-bet
9. Muhammad Amin Buxoriy. Ubaydullanoma. 163-bet
10. Tarixi Jahonnamoyi 284-bet



UDK:930

Azizbek RUZIMURODOV,
Navoiy innovatsiyalar universiteti o'qituvchisi
E-mail: azizbekshohkumush@gmail.com

T.f.d, professor O.Rashidov taqrizi asosida

HISTORY OF ORGANIZATION AND ACTIVITY OF RADIO AND TELEVISION OF NAVOI REGION

Annotation

This article is devoted to the history of the establishment and activity of Navoi region radio and television during the years of independence. The place and role of mass media in covering socio-economic and cultural life in the region is analyzed.

Key words: Radio, television, telecenter, mass media, press, publishing, speed, analytics, broadcasting company.

ИСТОРИЯ ОРГАНИЗАЦИИ И ДЕЯТЕЛЬНОСТИ РАДИО И ТЕЛЕВИДЕНИЯ НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ

Аннотация

Данная статья посвящена истории создания и деятельности радио и телевидения Навоийской области в годы независимости. Анализируется место и роль средств массовой информации в освещении социально-экономической и культурной жизни региона.

Ключевые слова: Радио, телевидение, телецентр, средства массовой информации, пресса, издательское дело, скорость, аналитика, телекомпания.

NAVOIY VILOYATI RADIOSI VA TELEVIDENIYESINING TASHKIL ETILISHI VA FAOLIYATI TARIXI

Annotatsiya

Mazkur maqolada mustaqillik yillarida Navoiy viloyati radiosi va televideniyesining tashkil etilishi va faoliyati tarixiga bag'ishlangan. Bunda ommaviy axborot vositalarining viloyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotni yoritishdagi o'rni va roli tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Radio, televideniye, telemarkaz, ommaviy axborot vositalari, matbuot, noshirlik, tezkorlik, tahliliylik, teleradiokompaniya.

Kirish. O'tgan asrning 80-yillarida O'zbekiston xaritasida Navoiy viloyatining paydo bo'lishi mintaqada ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy hayotning barcha sohalari, shu jumladan amaliy jurnalistika rivojiga ham muhim ahamiyat kasb etdi. 1982 yilning 3 avgustidan faoliyat ko'rsata boshlagan viloyat radiosi ijodiy jamoasi Navoiy jurnalistika maktabining vujudga kelishi va shakllanishini boshlab berdi. Navoiylik ijodkorlar har kuni o'zbek, rus va qozoq tillarida radioeshittirishlar tayyorlash, ularda viloyat hayotini to'laqonli yoritishni o'zlariga maqsad qilgan edilar [1]. SHu bois kenja viloyat radiosi qisqa davrda respublika teleradiosi tarkibidagi ilg'or bo'linmalardan biriga aylangan.

Dastlab Navoiy radiosining eshittirishlari 12:30 dan 13:00 gacha va 17:00 dan 17:30 gacha – jami bir soat efirgan uzatilgan. Navoiyda radio dasturi viloyat hududiga dastlab sim orqali etkazilib berilgan bo'lsa, keyinchalik 4,39 metrli ultra qisqa to'lqin (UKV) da tarqatilgan. Keyinchalik efir hajmi oshib, soat 15:30 dan 17:06 gacha 1 soat 36 daqiqa analog formatda FM 106,6 chastotada uzatilgan [2].

O'sha davrda radioeshittirishlarni efirga uzatuvchi maxsus mashina ("UAZ"ga radio apparatlari moslashtirilgan) dan eshittirishlar efirga berilgan. YOzning issig'ida bunday "studiya" da faoliyat olib boradigan xodimning ahvolini tasavvur qilish qiyin emas. Bu davrda tashkil etilgan studiyaning holati ham qoniqarli bo'lmagan. Sohaga e'tibor, ayniqsa, mustaqillikdan keyin kuchaydi. Radioga yosh xodimlar jalb qilindi. Ularning ovozini nafaqat viloyat, balki, Jizzax, Buxoro, Samarqand aholisi tingladi [3].

Navoiyda radio dasturi viloyat hududiga dastlab sim orqali etkazilib berilgan bo'lsa, keyinchalik 4,39 metrli ultra qisqa to'lqin (UKV) da tarqatilgan. Keyinchalik efir hajmi oshib, soat 15:30 dan 17:06 gacha 1 soat 36 daqiqa analog formatda FM 106,6 chastotada uzatilgan. 2021 yil 23 matdan boshlab, har kuni 12:00 dan 14:00 gacha 2 soat analog formatda FM 101,6 chastotada uzatilmogda. Tabiiyki, bu ijodiy o'zgarishlar tinglovchi auditoriyasi yanada oshishiga xizmat qiladi. Kelgusida Navoiy viloyati radiosi jamoasi alohida FM to'lqini orqali har kuni 12 soat mahsulot uzatishni rejalashtirgan [4].

Mamlakatda ham siyosiy, ham iqtisodiy va ijtimoiy tub islohotlar ketayotgan bir davrda ommaviy axborot vositalari oldida muhim vazifalar qo'yilgan. Ommaviy axborot vositalari orasida alohida nufuzga ega bo'lgan radio va televideniye oldiga qo'yilgan asosiy talablardan biri eng avvalo bu tarmoqlarning o'z shini tubdan qayta qurish vazifasi bo'ldi. Bu borada respublika Prezidentining 1996 yil 8 mayda "Mamlakatda radioeshittirish va televideniye ishini takomillashtirish haqida"gi farmoni va shu farmonga asosan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining maxsus qarori qabul qilindi. O'tgan davr mobaynida radio va televideniye sohasida bir qator ishlar amalga oshirildi. Avvalo radiojurnalist va telejurnalist kadrlarni tanlash, ularni joy-joyiga qo'yishdan boshlandi. Kadrlar zahirasini to'ldirish, shakllantirish yo'lga qo'yildi. Har bir kadri tanlov asosida ishga qabul qilish tajribasi amalga oshirildi. Keyingi paytda viloyat radiosisda 4 ta yangi radio jurnal paydo bo'ldi. Navoiy televideniyesi yangi turkum ko'rsatuvlarni, mualliflik chiqishlarini tashkil etdi. Eshittirishlar va ko'rsatuvlar saviyasi birmuncha yaxshilandi. Navoiy viloyati turli jabhalardagi

islohotlarning borishi, muammolar eshittirishlar va ko'rsatuvlar sahifalarida olib chiqildi [5].

Radio va televideniye oldiga qo'yilgan yuksak talablarni to'liq ado etish uchun zamonaviy radio – telemarkazlarning zarur bo'ldi. Shu maqsadda viloyat hokimi Hayot Rahimovich G'afforovning shaxsiy tashabbusi bilan 1996 yilning noyabr oyida yangi radio – telemarkaz qurilishi boshlab yuborilgan. Bu yangi markazni qurish uchun umumiy hajmi 66 million so'mlik mablag' ajratilgan. Mazkur inshootni qurish uchun "Navoiynon" mahsulotlari kombinati, Navoiy GRESi, "Navoiyement", viloyat gazlashtirish boshqarmasi, "O'zbekelektroremont", "Navoiytrans" ishlab chiqarish birlashmasi, Navoiy shahar hokimligi, Konimex tuman hokimliklari homiylik qilganlar[6]. Navoiy radiosida haftaning har payshanba kuni E.Qashqarbekova va Sh.Yakubovlar qozoq tilida efirni olib bordilar [7].

Radioeshittirishlar chiroyli so'zlar va jozibali ovoz uyg'unligida kishi ongida tasavvur uyg'otish mahorati radioijodkorlarga xosdir. Bu borada Qurbon To'xtaev, Farog'at Barnoeva, Abdurayim Naimov, Nusrat Odilov, suxandon Norjon Koychevalar samarali mehnat qilmoqda. O'qilgan matnlarga mos musiqalar tanlab, eshittirishlarni sayqallantiruvchi ovoz operatorlari San'at SHokirov, Feruz Hakimovlarning hissalarini katta. O'zbek va qozoq xalqi azaldan qon-qarindosh bo'lib ishlab, yashab kelgan. Navoiy qiloyati Qizilqum sahrolarida mehnat qilayotgan qozoq millatiga mansub viloyat ahli uchun haftaning har yakshanba kunida "Altin aymak" teledasturi hamda haftaning ikki kunida qozoq eshittirishlari efirga uzatiladi. Bunda Marks Duzelbaev, Elianora Qo'chqorbekova va Nabi Abdurahimovlarning xizmatlari beqiyos. Navoiy viloyat teleradiokompaniyasida 60 nafardan ziyod xodim mehnat qildi. Teleradiokompaniya faoliyatining dastlabki davrida birorta ham kompyuterga ega bo'lmagan tashkilot endlikda zamonaviy texnologiya va asbob-uskunalar bilan ish yuritadi [8].

Navoiy viloyat radiosi ijodiy xodimlarining mehnatlari samarasini tumandagi muxlislar faolligidan bilish mumkin. Ayniqsa, Tomdi, Konimex, Nurota tuman ahli bu borada boshqa hududlarga nisbatan faol hisoblanadi. Ular orasida turli soha egalari – o'qituvchilar, chorvadorlar, ichki ishlar xodimlari, haydovchilarni uchratish mumkin. Radio ijodkorlar muxlislar auditoriyasini kengaytirish maqsadida tinmay izlanishda. Navoiy radiosidagi "Ko'ngil ko'chalari", "Salomatlik sirlari", "Askar kundaligi" eshittirishlari barchaning ko'nglidan chuqur joy olib ulgurgan. Xo'jalik, fuqarolik sudlari, huquqshunoslar hamkorligida tashkil etiladigan "Radio advakat" dasturi ham shunday eshittirishlardan biridir. "Omad kaliti" eshittirishi esa qiziqarli savollari bilan muhlislarga manzur bo'lgan [9].

Viloyat radiosi dastlabki davrda tumanlarda ijod qilayotgan jurnalistlarning hamjihatlik bilan faoliyat yuritishida ham muhim vositaga aylandi. Uning eshittirishlarida tuman va shahar gazetalarida hamda radioeshittirish tahririyatlarida faoliyat yuritgan ijodkorlar o'z materiallari bilan qatnashadigan bo'lishdi.

Navoiy viloyati televideniyesi 2000 yil 1 fevralda tashkil etilgan. Dastlabki ko'rsatuvlar haftasiga 2 soatdan uzatilgan. 2010 yilga kelib haftalik efir hajmi 6 soatga etkazildi. 2011 yildan viloyat televideniyesi aholiga 10 soatlik mahsulot taqdim eta boshladi. Aynan shu yili viloyat teleradiokompaniyasi uchun qurilgan ikki qavatli bino zamonaviy teleuskunalar bilan jihozlanib, foydalanishga topshirildi. Natijada teleradiokompaniya binosining o'zidan efirga uzatish yo'lga qo'yildi. Optik tolali uzatgichlar o'rnatilgach, efir sifati yaxshilanib, videotasvirni raqamli va analog signalda qabul qilish imkoni yaratildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 6 iyuldagi 427-F-sonli farmoyishi asosida Navoiy viloyati hokimligi tomonidan moliyalashtirilgan 265 million so'm mablag' evaziga 2 ta studiya uchun dekoratsiya va zamonaviy texnika sotib olindi. Jumladan 1 dona server, 1 dona avtomatlashtirilgan (Forward) efir serveri, 8 ta ofis kompyuteri, printer, televizor, ovoz yozish studiyasiga 2 dona professional "Behringer B-2 Pro va 1 dona "SONY NEX-EA50K HD" raqamli videokamera hamda bir nechta ofis jihozi xarid qilinib, televideniye moddiy-texnika bazasi mustahkamlandi [10].

2015 yil birinchi choragida O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi tomonidan 210 million so'mlik teleradio sohasi uchun zarur bo'lgan texnika, ya'ni 3 ta nochiqliq montaj kompyuteri to'plami, 3 ta zamonaviy "SONY PXW-X160" videokamerasi, 1 ta simsiz radiosistemali mikrafon, 3 ta "Impact READY COOL 3-Point Lighting Kit" yoritgiya chiroqlari to'plami, 1 dona "Behringer XENYX" audiomiksheri, radio uchun "OIYMPUS LS-14 Linear PCM Recorder" diktafonlari xarid qilinib, viloyat teleradiokompaniyasi texnik bazasi yanada boyitildi [11].

Navoiy viloyat teleradiokompaniyasi ijodkorlari milliy manfaatlariga mos ravishda fikr yuritib, hududning ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy hayotida yuz berayotgan muhim voqea hodisalarni chuqur tahlil etgan holda televideniye va radio orqali xalqqa etkazib bermoqda. Jumladan, 57 TVK va 6 TVK orqali "Obodlik ko'ngildan boshlanadi", "Bank va biznes xabarlari", "Qaror va ijro", "TV-intervyu", "Mahallam – faxrim", "Mening dehqon elim", "Qishloqdagi shinam uy", "Yosh oilalar – davlat himoyasida", "Ochiq muloqot", "Ayol qalbi" kabi ko'plab ko'rsatuv va eshittirishlar orvali viloyatda olib borilayotgan keng ko'lamdagi bunyodkorlik ishlari, ularga o'z hissalarini qo'shayotgan filoyi insonlar faoliyati yoritilmoqda. "Inson va qonun", "Musaffo ayot og'ushida", "Huquqiy mezon" kabi ko'rsatuv va eshittirishlarda kunning eng dolzarb muammolari bo'lgan odam savdosiga qarshi kurash, OITS, giyohvandlik illatlari va ularning oldini olish, voyaga etmaganlar bilan ishlash komissiyalarining faoliyati haqida muhim ma'lumotlar berilmoqda. Shuningdek, ma'gaviyat va ona tiliga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirish qaratilgan "Milliy g'oya – mening g'oyam", "Til millat ko'zgusi", "Ma'naviyat sarchashmalarida" kabi ko'rsatuv va eshittirishlar ham dasturlardan o'rin oldi. Bunday mavzularni tayyorlab, efirga uzatishda har biri o'z uslubiga ega bo'lgan ijodkorlar – Laylo Karimova, Sayidali Temirov, Xolbib Safarova, Nodira Samandarova, Lobar Rizaeva, O'raloy Turdieva, O'tkir O'sarovlarning ishlari tahsinga sazovor [12].

Har bir axborot, lavha, ko'rsatuvni efirga uzatish uchun ba'zan ikki-uch kunlab mehnat qilishga to'g'ri keladi. Ijodkorning har bir materialga yangicha yondashuvi, tasvirchi, montaj ustasi, rejissiyorning mahorati – hammasi bir butunlikda efir yuzini ko'radi. Bu borada tasvirchilar Ozod Eshnazarov, Sobir Xoliqulov, Bahodir Shodiev, montaj ustalari Azim Ibodullaev, Aziz Suyarov, Farhod Bahromov, Salim Xangilov rejissiyor Jo'raqul Eshovlarning xizmatlarini alohida ta'kidlash o'rindir [13].

Istiqloq sharofati bilan Navoiy viloyatining tumanlarida ham xususiy televideniye faoliyat ko'rsata boshladi. Jumladan, Nurota tumanida "Nur" televideniyesi ham aholiga o'z ko'rsatuvlarini namoyish qilgan. 1991 yil 17 oktyabrdagi 316/10-sonli Nurota tumani ijroiya qo'mitasining qaroriga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ning "Kichik korxonalarni rivojlantirish to'g'risida"gi 1990 yil 8 avgust qaroriga asosan tumanda televideniye, video, audio teleapparatlarini sozlash videotasvirlarni amalga oshirish maqsadida "KVANT" korxonasi tashkil etilgan. Mazkur korxonada rahbari Mahmudjon Xolnazarov tumanda "Nur" televideniyesini tashkil etdi. Ushbu televideniye haftaning

seshanba va juma kunlari mahalliy vaqt bilan kech soat 7 da o'zbek tilida ko'rsatuvlarini namoyish etgan. Televideniye tuman hokimligi homiylik qilgan [14].

“Nur” tuman televideniyesi teleuzatgichining quvvati 10 VT bo'lib, Nurota shahar aholisi hamda unga yaqin bo'lgan jami 30 ming aholiga xizmat ko'rsatgan. Televideniye jamoasi ko'rsatuvlarning mazmunli bo'lishiga alohida e'tibor qaratgan. Belgilangan ish rejasiga asosan ilg'or jamoalar, tadbirkor kishilar hayotidan, xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni masalasida “Tabarruk ona o'g'itlari”, “Eng ibratli xonadon”, “Ayol va huquq” ko'rsatuvlari, haftalik hokim soati yig'ilishlaridan hisobotlar namoyish etilgan. SHuningdek, oila yiliga bag'ishlab “Qarisi bor uyni – parisi bor”, “Qishloq hayotidan”, “Salomatlik – tuman boylik”, “Mustaqillik odimlari”, “Jajji san'atkor”, sport va madaniyat yangiliklari, axloqiy-madaniy, ma'rifiy tadbirlarni tasvirga olib namoyish etib borilgan. Tuman televideniyesi kichik yoshdagi bolalar uchun “Kichkintoy” sahifasi orqali multfilmlar namoyish etilgan. Shu bilan birgalikda “Kino ko'rsatuvlar” dasturi ham e'fira uzatilgan[15]. Iqtisodiy ehtiyoj, bozor siyosati nuqtai nazaridan bu televedenie ko'pincha xususiy e'lonlar, reklamalar va tijorat ko'rsatuvlarini e'lon qilish maydoniga

aylantirildi. 1996 yil 7 maydagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti “O'zbekistonning ijtimoiy taraqqiyotida televideniye va radioning rolini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida” farmoniga asosan televideniye asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari quyidagicha belgilab berilgan edi: “Axborotlarning mafkuradan mutlaqo holi bo'lishini nazarda tutgan holda, aholi hamda jamiyatning xolisona, haqqoniy va xilma-xil axborotlarga bo'lgan ehtiyojlarini o'rganish va qoniqtirish”[16]. Bu borada tuman televedeniyesida berilayotgan jangari filmlar bir-birin urish, kaltaklash, ayniqsa axloq, xulq-odob qoidalariga xilof filmlarning namoyish etilishi yoshlar dunyoqarashining shakllanishiga salbiy ta'sir etdi. Shu sabbali mazkur xususiy televedenie o'z faoliyatini to'xtatdi.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy televideniye ham davrga hamohang tarzda taraqqiyolashib bormoqda. Buni dolzarb mavzularda berilayotgan ko'rsatuv va eshittirishlar mazmunidan anglash mumkin. Yangi binoda ish boshlagan va zamonaviy teleuskunalar bilan jihozlangan Navoiy viloyat teleradiokompaniyasida modernizatsiyalash ishlari davom etmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Хўжаев О. Навоий журналистика мактаби // “Navoiy press” газетаси. 2012 йил 28 июнь 26-сон.
2. Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси замон билан ҳамқадам. – Тошкент: “Dizayn-Print”, 2022. – Б.208.
3. Якубов Ф. 30 йилни тарихга муҳрлаб // “Do'stlik bayrog'i”. 2012 йил 26 июнь. 51-сон.
4. Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси замон билан ҳамқадам. – Тошкент: “Dizayn-Print”, 2022. – Б.208.
5. Султонов Ғ. Ҳар бир ишда давр нафаси // “Дўстлик байроғи”. 1997 йил 27 июнь. 47-сон.
6. Султонов Ғ. Ҳар бир ишда давр нафаси // “Дўстлик байроғи”. 1997 йил 27 июнь. 47-сон.
7. Якубов Ф. 30 йилни тарихга муҳрлаб // “Do'stlik bayrog'i”. 2012 йил 26 июнь. 51-сон.
8. Ўралова Г. Навоийдан гапирамиз ва кўрсатамиз // “Do'stlik bayrog'i”. 2009 йил 25 июнь. 36-сон.
9. Якубов Ф. 30 йилни тарихга муҳрлаб // “Do'stlik bayrog'i”. 2012 йил 26 июнь. 51-сон.
10. Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси замон билан ҳамқадам. – Тошкент: “Dizayn-Print”, 2022. – Б.208.
11. Ўзбекистон миллий телерадиокомпанияси замон билан ҳамқадам. – Тошкент: “Dizayn-Print”, 2022. – Б.208-210.
12. Ўралова Г. Навоийдан гапирамиз ва кўрсатамиз // Do'stlik bayrog'i. 2009 йил 25 июнь. 36-сон.
13. Ўралова Г. Навоийдан гапирамиз ва кўрсатамиз // Do'stlik bayrog'i. 2009 йил 25 июнь. 36-сон.
14. Ҳамдам Нурий. “Нур” телевидениеси: бугун ва эрта // “Дўстлик байроғи”. 1998 йил 26 июнь. 47-сон.
15. Ҳамдам Нурий. “Нур” телевидениеси: бугун ва эрта // “Дўстлик байроғи”. 1998 йил 26 июнь. 47-сон.
16. “Ўзбекистоннинг ижтимоий тараққиётида телевидение ва радионинг ролини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида” 1996 йил 7 майдаги Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармонлари, ПФ-1462-сон. <https://lex.uz/docs/176483>